

## “AFRIKA DAVLATLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL TA‘LIM METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Mamasaidova Zilola Adaxamjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari  
yo‘nalishi 4-bosqich talabasi,*

**Sarikulov Mirkomil Olimovich**

*Biologiya va geografiya kafedrası  
katta o‘qituvchisi*

*Andijon shahri Do‘stlik ko‘chasi 2 uy  
sarikulovmirkomil@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola “Afrika davlatlari” mavzusini o‘qitishda interfaol ta‘lim metodlaridan foydalanishning ahamiyati deb nomlangan. Ushbu maqolada “Afrika davlatlari” mavzusini o‘qitishning nazariy masalalari, mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda hosil qilinayotgan ilg‘or pedagogik ta‘lim metodlar nazariyasining umumiy asoslari, qoidalari hamda ta‘limdagi pedagogik texnologiyalarga tavsiflar berilgan. “Afrika davlatlari” mavzusini o‘qitish jarayoniga turli ta‘lim metodlarini tatbiq etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligi, axborot texnologiyalari, raqamli o‘zbekiston - 2030, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, tafakkur buluti metodi, kreativlik, ijtimoiy ko‘nikmalar, kommunikativ ko‘nikmalar, pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar.

**Abstract:** This article is entitled *The Importance of Using Interactive Teaching Methods in Teaching the Subject “African States”*. This article discusses the theoretical issues of teaching the subject “African States”, the general principles and rules of the theory of advanced editorial teaching methods being developed in our country and foreign countries, and describes editorial technologies in education. Instructions are provided on how to apply various teaching methods to the teaching process of the topic “African Countries”.

**Keywords:** education, teacher-student collaboration, information technologies, digital Uzbekistan - 2030, interactive methods, independent thinking, creative thinking, thought cloud method, creativity, social skills, communicative skills, pedagogical technologies, innovative methods.

### KIRISH

Interfaol metodlar-ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish,

shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohaslarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi.

### ASOSIY QISM

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Interfaol metodlardan foydalanib darslar tashkil etilsa, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi va ta'lim sifati yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o'tilgan darslar o'quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlar orqali o'tiladigan darslarda an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo'lgani kabi interfaol usullarni

qo‘llashdan maqsad bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o‘zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o‘quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta‘minlaydi.

**1.1-jadval**

**An’anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar**

No	Asosiy tushunchalar	An’anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo‘llanish darajasi	Barcha mavzular bo‘yicha ular uchun qulay bo‘lgan dars turlari shaklida qo‘llaniladi.	Ayrim mavzular bo‘yicha interfaol darsning qulay bo‘lgan turlari shaklida qo‘llaniladi. Boshqa mavzular uchun an’anaviy dars qo‘llaniladi.
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo‘yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o‘rgatish.
3	O‘qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O‘quvchilarning tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo‘yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma‘lumotlarni bilish.
6	O‘quvchilarning vazifalari va ish usullari	O‘qituvchini tinglash va o‘zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O‘qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo‘yicha mustaqil fikrlash, o‘z fikr, xulosalarini boshqalarga

			solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi;	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
10	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar.
11	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbatlari,

		mashg'uloti, suhbati, munozara, konsultastiya va boshqalar.	davra bahs, va	amaliy ishlar va boshqalar.
12	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari.		Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

“Afrika davlatlari” mavzusini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish natijasida talaba ilmiy-amaliy tekshirib ko‘rish, ijodiy yondashish va tanqidiy fikrlash imkoniga ega bo‘ladi: talaba Internet tarmog‘iga kirib fanga tegishli yangi adabiyotlardan, elektron darsliklar, manbalar, ilmiy va metodik jurnallardan, kundalik axborot-resurs manbalaridan qo‘shimcha ma‘lumotlarni, yangi kiritilgan xaritalarni izlab topish, tabiatda bevosita kuzatish yo‘li bilan ma‘lumot yig‘ish, ularni saralash, tartibga va tizimga solish, tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy tadqiq qilish, natijalarni prezentatsiya -taqdimotlar yordamida asoslab berish. Tadqiqot davomida, “Afrika davlatlari” mavzusini o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishdek muammoning yechimi quyidagi asosiy vazifalarini bajarilishiga bog‘liq ekanligi ma‘lum bo‘ldi:

- har bir fanning maqsadi va vazifalarini e‘tiborga olgan ta‘lim mazmuni tanlash;
- o‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda fandagi asosiy g‘oya, nazariya, tushuncha, qonuniyatlarni ajratish, bilimlarni ongli o‘zlashtirishga imkon beradigan o‘qitish vositalari va metodlarini aniqlash;
- ilmiy-nazariy ma‘lumotlar asosida talabalar dunyoqarashini shakllantirish, kengaytirish, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari ruhida tarbiyalash yo‘llarini belgilash;
- ta‘lim-tarbiya jarayonida talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradigan va bilish mustaqilligini ta‘minlaydigan samarali metod va usullarni aniqlash;
- talabalarni mehnatga o‘rgatish, ma‘naviy-axloqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik tarbiyalash mazmuni, metodlari va vositalarini aniqlash;
- o‘quv kurslariga mos keladigan, talabalarning bilim olish ehtiyojlarini e‘tiborga olgan holda ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar va amalda tekshirib ko‘rilgan ta‘lim-tarbiya metodlari bilan o‘qituvchilarni qurollantirish;

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Даринский А.В. География ўқитиш методикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1967.
2. Ишмухамедов Р.Ж., Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Таълимда инновацион технологиялар. – Т.; 2008.
3. Жанзақов А.Б. География дарсларида ахборот технологияларини қўллаш усуллари // Халқ таълими журнали. – Тошкент, 2020.
4. Никадамбаева Х.Б. География ўқитиш методикаси. Услубий қўлланма.- Т.: Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ нашриёти, 2017.
5. Тошкент энциклопедияси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –Т.: 2009.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. –Т.: 2003.
7. Abdulqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. T: Mehnat
8. Abirqulov Q., Kurbanniyozov R. “Iqtisodiy geografiyadan Amaliy mashg’ulotlar” Urganch. 1999.